




SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI


SURXONDARYO VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2025- YIL YANVAR-FEVRAL (DASTLABKI MA'LUMOT)



**Tel.: 76-225-65-76
www.surxonstat.uz**


Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 1360,3 mlrd. so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 91,2 % ni tashkil etdi.



2025-yilning yanvar-fevraloylarida viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Denov tumani (10,3 %), Qumqo'rg'on tumani (9,1 %), Jarqo'rg'on tumani (8,9 %), hamda Termiz shahri (8,7 %), hissasiga tog'ri keldi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Angor tumanida (135,3 %), Denov tumanida (112,4 %) hamda Sherobod (110,4 %) tumanlarida kuzatildi.




*2025- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.


Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2025-yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 38,7 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 2,6 % ga toʻgʻri keldi.



*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



Yanvar-fevral oylarida yirik korxonalar bo'yicha (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Ko'mir, ming t.	58,9	54,2	-4,7
Neft, ming t.	12,6	10,5	- 2,1
Qattiq tuz, ming t.	3,0	3,4	0,4
Chaqiq tosh, ming t.	5,5	0,0	-5,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoat


Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar-fevra loylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1360,3 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 91,2 % ni tashkil etdi.




91,2 %

*Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




*2025- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2024-y.ning yanvar-fevral oylarida – 0,2 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 0,5 % (2,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,7 % (21,1 %), quyi texnologiyali 71,1 % (64,3 %)ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 37,7 % (2024-y.ning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,6 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi – 18,7 % (2024-y.ning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 125,4 %), boshqa no metall mineral mahsulotlarni ishlab chiqarish ulushi – 11,8 % (2024-y.ning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,1 %) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish ulushi – 15,2 % (2024-y.ning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 96,3 %), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi–2,8% (2024-y.ning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 80,3 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-fevral oylarida viloyatda 1518,0 ming l 100% l spirt aroq (2024-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 54,4 m. ga ko'paygan), 281,0 ming l uzum vinosi (385,0 % ko'paygan), paxta tolasi 5,0 ming. t (202,7 % ga ko'paygan) hamda 10,8 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (157,3 % ga ko'paygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2024-y. yanvar	2025-yil yanvar	Farqi +/-
Aroq, ming l 100%li spirt	27,9	1518	1490,1
Uzum vinosi ,ming l	72,9	281,0	208,1
Paxta tiviti, tonna	493	673	180
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	6,8	10,8	4,0
Paxta tolasi, ming t.	2,8	5,7	2,9

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,9 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 7,2 % ga o‘ydi va ishlab chiqarish hajmi 11,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 11,8 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,9 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 176,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.




*2025- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 18,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,0 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 270,0 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 9,2 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 9,8 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.




*2025- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025-yilning yanvar-fevral oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 37,4 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,3 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 523,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2025-yilning yanvar-fevral oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 3,1 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 36,4 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.




*2025- yil ma'lumotlari yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 17,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3,3 mlrd. so'mni tashkil etgan.



Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish

Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish – foydalanish uchun tayyor bo'lgan xom neft va ko'mir mahsulotlarini qayta ishlashni, xom neftni komponentlarga separatsiyasida bo'lgan kreking va distillyatsiyalash yo'li bilan neftni tozalashni hamda etan, propan va butan kabi gaz mahsulotlarini, neftni qayta ishlash zavodi mahsulotlarini o'z ichiga oladi.



2024- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,2 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,3% ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 41,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 55,2 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3,7 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025-yilning yanvar-fevral oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 57,4 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 102,9 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-y. yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	19,9	35,5	15,6
Issiqlik energiyasi, ming gkal	2,0	3,8	1,8
Quyosh elektr stantsiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi, mln kVts	0,4	0,5	0,1

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 37,3 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,5 % iga) to'g'ri keldi.



*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 21,4 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 24,9% ga ko'payish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-y. yanvar-fevral	2025-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm	0,6	0,3	-0,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari boyicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar-mlrd.so'm	5,7	8,7	1,3

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra